



## “AKSIYALAR VA OBLIGATSIYALAR: FOND BOZORIDAGI O‘RNI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI”

Mansurova Muqaddas Muzaffarovna

Guliston davlat universiteti  
Biznesni boshqarish, 2-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19603443>

### ARTICLE INFO

Received: 4<sup>th</sup> April 2026  
Accepted: 5<sup>th</sup> April 2026  
Published: 16<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Oddiy aksiyalar, imtiyozli aksiyalar, obligatsiya, tavakkalchilik.*

### ABSTRACT

*Iqtisodiy yuksalish va sarmoyalarni jalb etish orqali O‘zbekiston fond bozori ham faol rivojlanmoqda. Respublika fond birjasi qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkillashtiriladigan joy bo‘lib, investorlarga turli kompaniyalarning aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish imkoniyatini beradi. Birjada turli qimmatli qog‘ozlar, jumladan, aksiya va obligatsiyalar mavjud. Investorlar ushbu qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilishlari va investisiya maqsadlariga erishish uchun turli strategiyalardan foydalanishlari mumkin.*

Qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish haqida so‘z ketganda, aksiya va obligatsiya nima, ularning bir-biridan farqi, afzalliklari nimada degan tabiiy savol tug‘iladi ?

**Aksiyalar nima:** Aksiya - oddiy tilda aytadigan bo‘lsak, bu aksiyadorning aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozdir ya‘ni biznesning kichik bir qismiga egalik qilasiz.

Boshqachasiga aytganda, Siz kompaniyaning kichik bir qismini sotib olgan hisoblanasiz. Agar kompaniya muvaffaqiyatli rivojlanayotgan bo‘lsa, uning aksiyalari qiymati oshishi mumkin va Siz ularni qimmat narxlarda sotishingiz mumkin. Aksiyalar ikki xil bo‘ladi, oddiy va imtiyozli.

**Oddiy aksiyalar** - ovoz beruvchi aksiyalar bo‘lib, ular o‘z egasiga dividendlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Agarda jamiyat moliya yilini zarar bilan yakunlasa, tabiiyki oddiy aksiya egalariga dividendlar berilmaydi.

Agarda moliya yili rejalashtirilgandan ko‘p daromad bilan yakunlansa, dividend xam o‘z-o‘zidan oshaveradi.

**Imtiyozli aksiyalar** – bu aksiyadorlarga dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qo‘yilgan mablag‘larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalardir.

Imtiyozli aksiyalar o‘z egalariga jamiyat foyda ko‘rish-ko‘rmasligidan qat‘i nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

Jamiyat ustavida imtiyozli aksiya egalariga qancha miqdorda dividend to‘lanishi belgilab qo‘yiladi (*bugungi kunda amaliyotda imtiyozli aksiya egalariga aksiya nominal qiymatining 25 foizigacha miqdorda dividendlar berilmoqda*). Ya‘ni, jamiyat qancha daromad olmasin yoki zarar bilan chiqmasin, imtiyozli aksiyaga aksiya nominal qiymatining 25 foizigacha miqdorida dividend beriladi xolos. Undan ortig‘i berilmaydi.

Oddatda imtiyozli aksiya egalari aksiyadorlik jamiyati umumiy yig'ilishdarida ishtirok etmaydilar (*ovoz bermaydilar*). Biroq ular aksiyadorlar umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadilar:

Jamiyatni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda; Jamiyatni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda.

Jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar xal etilayotganda.

**Obligatsiyalar nima:** Obligatsiya - bu qarzning bir turi hisoblanadi. Obligatsiyani sotib olayotganda, Siz ma'lum bir muddatga kompaniya yoki davlatga qarz berasiz. Buning evaziga ular ushbu pul mablag'ini Sizga foizi bilan qaytarishga va'da berishadi. Boshqachasiga aytganda, obligatsiya - bu kompaniya yoki davlat Sizga ma'lum bir muddat davomida muayyan miqdordagi pul mablag'ini va foizlarni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan shartnoma hisoblanadi.

### **Aksiyalar va obligatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar**

#### **1. Egalik qilish va huquqlar:**

**Aksiyalar:** Aksiyalarni sotib olish orqali Siz kompaniyaning o'z aksiyangiz miqdori darajasidagi egasiga aylanasiz. Aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega bo'lasiz, (agar kompaniya aksiyalarining muhim ulushiga egalik qilsangiz) yig'ilish qarorlariga ta'sir o'tkazishingiz mumkin. Shuningdek, Siz kompaniya foydasining bir qismini dividendlar ko'rinishida olishingiz mumkin.

**Obligatsiyalar:** Obligatsiyalarni sotib olish orqali siz qarz beruvchiga aylanasiz, ya'ni qarzga pul berasiz. Siz kompaniyada ovoz berish huquqiga ega bo'lmaysiz va uni boshqarishda ishtirok etmaysiz. Kelishilgan holda to'lanadigan foiz Sizning daromadingiz hisoblanadi.

#### **2. Tavakkalchilik:**

**Aksiyalar:** Aksiyalar xatarliroq instrument hisoblanadi. Chunki aksiyalar narxi kompaniyaning rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, ko'tarilishi yoki tushishi mumkin. Eng yomon holatda, ya'ni, agar kompaniya inqirozga yuz tutsa, Siz o'z pulingizni yo'qotishingiz mumkin.

**Obligatsiyalar:** Obligatsiyalar kamroq xatarga ega hisoblanadi, chunki kompaniya yoki davlat Sizga pulni foizi bilan qaytarishi shart. Faqat agar kompaniya o'z majburiyatlarini bajara olmasa (masalan, inqirozga yuz tutsa), u holda kiritgan sarmoyangizni qaytarib olishingiz muammoga aylanadi.

#### **3. Daromad:**

**Aksiyalar:** Aksiyalardan olinadigan daromad kompaniyaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bog'liq hisoblanadi. Siz aksiyalar narxining ko'tarilishidan foydaga ega bo'lishingiz yoki dividendlar olishingiz mumkin. Ammo daromadga ega bo'lish kafolatlanmaydi, chunki hamma narsa bozor sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

**Obligatsiyalar:** Obligatsiyalar bo'yicha daromad oldindan ma'lum va belgilangan hisoblanadi. Kompaniya yoki davlat Sizga ma'lum vaqt oralig'ida to'lashi kerak bo'lgan foizlar - ayni shu daromad hisoblanadi.

#### **4. Muddatlar:**

**Aksiyalar:** Aksiyalarni siz xohlagancha - bir necha kun, hattoki o'nlab yillar davomida o'zingizda saqlashingiz mumkin. Hammasi ularni qachon sotishga qaror qilishingizga bog'liq.

**Obligatsiyalar:** Obligatsiyalar 1,5 yil yoki 10 yil kabi muayyan bir muddatga chiqariladi. Muddati tugagach, pulingizni foizlari bilan qaytarib olasiz.

#### **5. Bankrotlikka doir tavakkalchiliklar:**

**Aksiyalar:** Agar kompaniya bankrot bo'lsa, aksiyadorlar barcha kreditorlardan keyin oxirgi navbatda o'z pullarini oladilar. Bu shuni anglatadiki, bankrotlik natijasida, aksiyadorlar barcha sarmoyalarini yo'qotishi mumkin.

**Obligatsiyalar:** Obligatsiya egalari (kreditorlar) birinchi navbatda o'z pullarini oladilar. Bu ularga kompaniya bankrot bo'lgan taqdirda o'z sarmoyalarini qaytarib olish imkonini beradi.

**Nimani tanlash kerak: aksiya yoki obligatsiya?**

Aksiyalar va obligatsiyalar o'rtasidagi tanlov Sizning maqsadlaringizga va Siz yo'l qo'yishingiz mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasiga bog'liq. Agar Siz ko'proq daromad olishni istasangiz va tavakkal qilishga hozir bo'lsangiz, aksiyalar sotib olganingiz afzalroq bo'lishi mumkin. Agar Siz uchun barqarorlik va ishonchlilik muhimroq bo'lsa, obligatsiyalar eng yaxshi tanlov hisoblanadi.

Ko'pgina sarmoyadorlar tavakkalchilik va daromadlilik muvozanatini saqlash uchun aksiyalar va obligatsiyalarni birlashtiradilar. Ushbu holatda aksiyalar yuqori daromad olish imkonini beradi, obligatsiyalar esa barqaror foiz daromadini ta'minlaydi.

